

O`ZBEKISTONDA IT-PARK BINOSI YARATILISH TARIXI

Madraximov Odamboy Baxtiyorovich

Urganch Davlat universiteti

odamboymadraximov@gmail.com

Bugungi kunda butun davlatning rivojlanishi IT sohasining rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi, shuning uchun dunyoning ko‘pgina mamlakatlari birinchi navbatda barcha e’tiborini butun IT-ekotizimni yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratmoqdalar.

Mamlakatimizda ham so’ngi yillarda IT sohasiga katta e’tibor qaratila boshlandi. So’ngi 5 yil davomida O‘zbekistonda axborot texnologiyalari sohasi, boshqa barcha sohalar singari, katta o‘zgarishlarga duch keldi va keyinchalik nafaqat iqtisodiyotga, balki butun mamlakat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatdi

IT Park – bu IT-kompaniyalar uchun istiqbolli boshlang‘ich loyihalarni, tashqi iqtisodiy zonani, shu jumladan ilmiy va ta’lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta’minalash uchun mo‘ljallangan obyektlar, bino va inshootlar majmuasi. IT sohasida faol va iqtidorli insonlar buxgalteriya hisobi, yuridik, marketing va ta’lim orqali o‘z g‘oyalarini haqiqiy biznes loyihalariga aylantirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘ladigan maskandir. IT-Parkning asosiy vazifasi startaplarni amalga oshirishdir.[1]

Startap - bu istiqbolli innovatsion g‘oyani amalga oshirish maqsadida yaratilgan yosh va tez rivojlanayotgan biznes hisoblanadi

Startaplar Akseleratsiya va Inkubatsiya dasturi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Inkubatsiya dasturi – bu startapni g‘oyaviy bosqichdan prototip yaratishga qadar shakllantirishga mo‘ljallangan.

Akseleratsiya dasturi – bu loyihani moliyalashtirish va bozorga kirish uchun loyihani haqiqiy biznesga aylantirishga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdan 2 oktabrgacha bo‘lgan Hindiston Respublikasiga birinchi tashrifi chog‘ida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zbek va hind tomonlari IT-sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib oldilar. O‘zbekiston tomoni Hindistonning axborot va texnologiya kompaniyalari bilan birqalikda dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, startaplarni

jadallashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalari asosida O‘zbekistonda axborot texnologiyalari parkini yaratishga qiziqish bildirdi. Shunday qilib, ta’kidlash mumkinki, IT-park O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan

startap-ekotizim va startap-loyihalarni takomillashtirish va ularni mamlakatimizda amalga oshirish uchun yaratilgan.

Bu qaror va farmonlar natijasida 2019-yil 24-iyulda Toshkentda O‘zbekiston Respublikasidagi Prezidentining tashabbusi bilan birinchi IT-Park ochildi va o‘z faoliyatini boshladi.

IT-Park binosi 3 qavatdan iborat bo‘lib kovorking-zona, konferensiya zali, tadbir zonasi, laboratoriya, media studiya, ma’ruza xonalari, kibersport va robototexnika uchun auditoriyalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

IT Park davlat ko‘magi bilan mamlakatning istalgan mintaqasida IT fanlarini o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan yosh o‘g‘il-qizlar uchun barcha zarur sharoitlarni yaratmoqda. Bugungi kunga qadar O‘zbekistonning turli mintaqalarida 147 IT Markaz (IT Markaz – raqamli texnologiyalarni o‘qitish markazi) ochilgan.

IT Park filiallarini deyarli butun respublika bo‘ylab topish mumkin. Bugungi kunda ularning soni 10 taga yetdi. Filiallar quyidagi shaharlarda joylashgan: Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Nukus, Xorazm. Ularning har birida ishslash va o‘qish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, ushbu markazlarda kovorking-zona, konferensiya zali, tadbir zonasi, laboratoriya, media studiya, ma’ruza xonalari, kibersport va robototexnika uchun auditoriyalar, IT-Markaz va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, IT Park filiallarini qolgan viloyatlarda ochib, shu tariqa 2023-yil oxirigacha butun respublikani qamrab olish rejalashtirilgan.[2]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. <https://it-park.uz/uz/itpark/about>.
2. «<https://it-park.uz/uz/itpark/infrastructure>,» [B Интернете]. Available: <https://it-park.uz>.